

MAKTABGACHA TA`LIM YOSHDAGI BOLALAR KITOBOXONLIGI

Abdumannapova Durdona Shagayratovna

Toshkent pedagogika kolleji o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalar hali kitob o`qiy olmaydi, ular uchun olam noma`lumlik sirlarini bilinga, o`zlashtirishga intilish, qiziqish kuchli bo`lishi, Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga bo`lgan qiziqishni uyg`otish o`z navbatida psixologiya, bolalar xarakteristikasini bilmay turib amalga oshmasligi, bolalarni kitob o`qishga qiziqtirish va rasmli kitoblardan foydalanib mashg`ulotlarni samarali tashkil qilish haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: bolalar, kitobxonlik, savodxonlik, qiziqishni uyg`otish, psixologiya, mashg`ulotlar, ta`lim-tarbiya, faoliyat.

Hozirgi zamon tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish uchun yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo`lishi, umumiyligini va kasb madaniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqarosi sifatida mas'uliyatni his eta bilishi lozim. Tarbiyachilik kasbiga xos psixik holatlar va xarakter maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining o`ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashning psixik asoslari va qonuniyatları haqida bilim, ko'nikma va malakalar berishdan va ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishdan iborat.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. O`zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o`yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi. Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlanish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o`qishga o'tish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshida assosiy narsa o`qish bo`lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushinadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqeい o`z xatti -harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o`zgacha nuqtai nazaridan- maktab o`quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulq-

atvori va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Maktabgacha tarbiya o'qituvchilar bolalarni og'zaki va yozma til bilan doimiy ravishda tanishtirish, oldingi bilim va til tajribasiga tayanish orqali savodxonlikni rivojlantiradilar. Rasmlar, o'yin va bosma so'z og'zaki til bilan uyg'unlashib, bolangizga maktabgacha o'qish va yozish asosidagi ramziy tasvirni tushunishga yordam beradi. Uning o'qituvchisi maktabgacha yoshdagi o'qishni rivojlantirish uchun sinfda turli xil qiziqarli va qiziqarli strategiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Savodxonlikni har kunning bir qismiga aylantirish juda foydalidir. Shuningdek, bolalar xavfsiz tajriba va o'z dunyosini kashf qilish imkonini beruvchi bevosita tajribalarni qo'llash kerak. Har bir bola o'ziga xos vaqt oralig'ida til ko'nikmalarini o'rganadi va rivojlantiradi, ammo barcha yosh bolalarga quyidagilar kerak:

- * Rivojlanayotgan ko'nikmalarni rivojlantirish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari;

- * Rag'batlantirish va harakat uchun maqtov;

- * Doimiy o'rganish oilaviy qadriyat ekanligini tushunish;

Bola yetti yoshga to`lguniga qadar atrofdagi yangiliklarni tez ilg`aydigan bo`lib o`sса baradi. Bu jarayonni bolaning kelajakka tayyorlanishi tarzida tushunish kamlik qiladi, albatta. Negaki, inson shaxsiyatidagi barcha ijobjiy va salbiy xususiyatlar xuddi shu davrda shakllana boshlaydi, xarakteriga singa baradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hali kitob o`qiy olmaydi, ular uchun olam noma'lumlik sirlarini bilishga, o`zlashtirishga intilish, qiziqish kuchli bo`ladi. Yozuvchining vazifasi uning xuddi shu intilishini hisobga olib, qiziqishini alangalatishga qaratilgan holda ish tutishdan iborat. Bunda u maktabgacha yoshdagi kichkintoy tabiatiga xos taqlidchilik xususiyatini ko`zda tutib, hayotdagi xarakterli voqeа va hodisalarни uning tasavvuriga mos badiiy obrazlarda ifodalovchi asarlar yaratmog`i lozim.

Ma`lumki, maktabgacha yoshdagi kichkintoylar tevarak-atrofidagi har bir narsaga taqlid qilishdan charchashmaydi. Ular taqlidchilik vositasida hayotni o`zlashtiradilar. Shu boisdan ularga atalgan asarlarning personajlari-hayvonlar, qushlar, hasharoqlar, o`simliklar va boshqa narsalar bo`lishsa-da, odamlarga taqlidiy sifatlarga ega: Odamlarday gapirishadi, fikr yuritishadi. Shu taqlidda ularning har biri o`z xislatlari xususidagi oddiy ma`lumotlar bilan kichkintoylarning intellektual dunyosiga aylanadi, ularda hayotga qarashning o`ziga xos kurtaklari vazifasini o`tashga kirishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otish o'z navbatida psixologiya, bolalar xarakteristikasini bilmay turib amalga oshmaydi. Chunki har bir bola o'z shaxsiyat va dunyo qarashga ega. Shaxs kamoloti va uning taraqqiy etishida psixologiyaning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologiya eng asosiy omil hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi. Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqeа va hodisalarni tasodiflarni ko'proq eslab qoladilar. Agar tarbiyachi kitobni ovozli o'qib ularning diqqatini o'qilgan narsaga tartib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalar o'yin orqali voqeа va hodisalarni, kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko'rgan eshitgan, o'qigan narsalardagi holatlarni, kishilarni, hayvonlarni "yaxshi" va "yomon"ga ajratadilar va ularga o'z munosabatlarini bildiradilar. Bu yoshdagi bolalarni o'zlarini o'rab turgan muhit, tabiat va undagi hayvonlar, o'simliklar qiziqtiradi.



Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirish ular o'qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim. Biz bu yerda alohida kitobxonlarga ta'rif berdik xolos. Bolalar o'qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tomonlama o'rganish lozim.

Ba'zi bolalar haqiqiy kitobsevar bo'lsa, boshqalari esa o'qishni yoqtirmaydilar. Shunga qaramay, barcha bolalarni ham kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin.

Tavsiyaviy suhbat bolaga kitob tanlashda yordam berishni, kitobga qiziqish uyg'otishni, o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Tarbiyachi iloji boricha har qanday so'roqqa javobi tavsiya suhbati o'tkaziladi, kitobxonga mos keladigan kitoblarni tavsiya etadi. Bunda albatta xonadagi turli tavsiyaviy

vositalar, kitob ko'rgazmalari, rasmli kartotekalardan foydalanib kitobxon diqqatini jalg etadi va qiziqiarli so'zlab berish orqali ularni kitobga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Tavsiyaviy suhbatning qiymati shundaki u kitobxonni tartibli ravishda ko'proq mustaqil kitobni tanlash va dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi. Tarbiyachi kitobxon bilan kitob almashtirayotganda davra suhbat bilan quyidagi foidalarga amal qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. S. D. A. MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR KITOBOXONLIGI VA ULARNING DUNYOQRASHINI SHAKLLANTIRISHDA BOLALAR ADABIYOTI-BOSH OMIL SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 76-78.
2. Alimardanovna M. M. XXI ASRDA BOLALAR KITOBOXONLIGI: MUAMMO VA VAZIFALARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 407-410.
3. I. M. R., ABDUOLIMOVNA A. B. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISH //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2022. – C. 72-77.